

O'RTA OSIYO ENEOLIT DAVRIDA: AHOLISINING JOYLASHISHI, ETNIK JARAYONLARDA HUDUDIY CHEGARALARI XUSUSIDA

Tilovboyeva Mardona Aybekovna

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat Universiteti.

Mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya: Maqolada O'rta Osiyo tabiiy-iqtisodiy hududlarida aholining joylashishi, o'zlashtirilishi, hududiy chegaralari tahlil qilingan. O'rta Osiyo eneolit davrida aholining joylashish xususiyatlari, tabiiy-iqtisodiy hududlarning o'zlashtirilishi hamda etnik jarayonlarning hududiy chegaralari arxeologik va tarixiy-geografik manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda neolit davri jamoalarining eneolit davrida xo'jalik va madaniy vorisligi, migratsion jarayonlarning xususiyatlari hamda tabiiy omillarning aholi joylashuviga ta'siri yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: O'rta Osiyo, eneolit davri, neolit vorisligi, aholi joylashuvi, migratsion jarayonlar, etnik jarayonlar, hududiy chegaralar, tabiiy-iqtisodiy hududlar, Amudaryo va Zarafshon havzalari, Ustyurt va Orolbo'yi, tog'li va tekislik hududlari, xo'jalik an'analari, arxeologik manzilgohlar.

Eneolit (mis-tosh) davri - jamiyatimizda kechgan ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlarning rivojlanishi neolit davri urug'-jamoalarining xo'jalik sohasida ixtiro qilgan yangiliklari asosida rivojlanishi davom etgan. Mazkur tarixiy davrda O'rta Osiyoning issiq mintaqasida aholining olib borgan ko'chish tadbiri muayyan hududlarda davom etganligini kuzatish mumkin. Arxeologik izlanishlar natijalariga ko'ra, Ustyurt, Quyi Amudaryo, Zarafshon vodiysi (Qizilqum), Toshkent va Farg'ona vodiysida neolit davri urug' jamoalarida qo'shni hududlarga ko'chish zarurati paydo bo'lmagan.

A.V.Vinogradov Oqchadaryo havzasida olib borgan qazishma ishlari natijasida olingan ashyolar neolit davri ovchi-termachilarning avlodlari eneolit davrida ham yashashni davom etganligini ko'rsatadi.

Etnik jarayonlar masalasida shuni ta'kidlash joizki, eneolit davrida aholi o'rtasidagi munosabatlar asosan mahalliy hududlar doirasida kechgan. Katta migratsion harakatlar kuzatilmagan bo'lib, aholi tabiiy chegaralar – sahrolar, tog' tizmalari va suv havzalari bilan cheklangan makonda yashagan. Bu holat etnik-madaniy birliklarning uzoq vaqt davomida saqlanib qolishiga xizmat qilgan.

Turkmanistonning Kopetdog'oldi hududlari, Murg'ob daryosi havzasi, shuningdek, Zarafshon vodiysi shimoliy qismlari eneolit davrida faol o'zlashtirilgan hududlar sirasiga kiradi. Bu yerlarda yashagan aholi dehqonchilik va chorvachilikka moslashgan xo'jalik yuritish shakllarini rivojlantirgan. Ustyurt va Quyi Amudaryo

hududlarida esa ovchilik-termachilik xo'jaligi ustun bo'lib, aholi tabiiy resurslardan samarali foydalanishga intilgan.

To'rtlamchi davri neogen va eopeystosen davrida O'rta Osiyo tarixiy-geografik davrlari (2600-600 mingyilliklar oxiri) tekislik bo'lgan bo'lsa, 500-1000 yilliklarda pleystosen muzligi (mindel, mindel-riss, riss, riss-vyurm va vyurm) O'rta Osiyo markazigacha (Orol dengiz, Xorazm vohasi, Quyi Zarafshon, Qizilqum ichki qismi) qoplagan. Mil.avv. 10-mingyillikdan golosen davri boshlangan.

Xorazm ekspeditsiyasi nashrlarida Qoraqum va Qizilqum geografik kengligi 4-3,5 million yillar tekislik bo'lgan bo'lsa, geografik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, mazkur tekislik 25-10 million yillar ilgari sernam va serunum bo'lib, botiqlar suv havzalari geomorfologiyasini namoyon qilgan. O'rta Osiyo mintaqasi geomorfologiyasi tog' va tekisliklardan iborat bo'lgan. Mazkur zamin fizik-geografik xaritada Ustyurt chinki, Xorazm, Quyi Zarafshon vodiysi, Qizilqum tekisligi joylashgan (Orol dengizi – Boysun tog'igacha hudud yuzasi Qizilqum sahrosi sharoiti), shimoli-g'arbida Xorazm va Ustyurt pasttekisligi bo'lgan. Tog'li hududlarga Janubiy Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston hududlari jalb qilingan. Turkmaniston hududi tog'li (Kopetdog', Nebittog', Kichik va Balxon) va Qoraqum sahrosi okeani Janubiy Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston Respublikasi asosan tog'li o'lka bo'lib, ularning orasida soylar, tekislik, balandlik va qirlar ham bordir. Qirg'iziston hududi yer sathi relyefining 80%i, Tojikiston Respublikasining esa 90 %ini osmono'par tog'lar tasvir qilgan.

Tadqiqotchning ikkinchi monografiyasida neolit davri urug'-jamoalari vorislari (Shimoliy Oqchadaryo havzasi Barak-tom, Sharqiy Orol bo'yi hududida Jalpak, Jamiyati) manzilgohlari eneolit davrida joylashgan hududdan chiqmasdan etnik munosabatlarni olib borganlar. Mahondaryo arxeologiya guruhi xodimlari Quyi Zarafshon vodiysi, Qizilqum suv havzalari sohili etaklarida katta va kichik tuz konlarida Darvozaqir-1,2 manzilgohlari ovchi-termachilari tabiiy resurslardan foydalanib, etnik jarayonlarni cheklangan hududlarda olib borganlar.

XX asr 30-yillaridan O'rta Osiyoda turli nomda arxeologik izlanishlar olib borilishi natijasida neolit davriga oid manzilgohlarda keng qamrovli tarzda olib borilgan qazishmalar munosabati bilan eneolit davri turar-joylari to'g'risida ilk ma'lumotlar olingan. Xorazm vohasida 1950-yildan eneolit davriga oid manbalarni olishga muyassar bo'lingan. Misol tariqasida S.P.Tolstov Shimoliy Oqchadaryo hududi Sulton Uvays tog' atrofida joylashgan Qamishli-1,2 manzilgohlari uy-xonalaridan olingan ashyolar eneolit davriga mansub bo'lgan. Qazishma ishlari natijasida neolit davri urug'-jamoalari olib borgan xo'jalik sohalarida rivojlanish jarayoni kechgan, etnik munosabatlar davom etgan, ularning joylashishi Amudaryo harakatiga bog'liq bo'lgan. Demak, Janubiy Orolbo'yiga ko'nikkan geografik hudud aholi xo'jalik an'analari davom etgan. Bunday aholi joylashishi Quyi Zarafshon

vodiysida mavjud bo'lgan xom-ashyoga amal qilib, jamiyatning tadrijiy rivojlanishini olib borganlar. Tabiiy-iqtisodiy zaxira serob bo'lgan tog'li hududlarda turmush tarzini olib borgan, ajdodlari xo'jalik an'analarini davom ettirganlar.

Olib borilgan tahlillar natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, eneolit davrida O'rta Osiyo hududlarida aholi joylashuvi uzluksiz va izchil xarakterga ega bo'lgan. Neolit davrida shakllangan xo'jalik va madaniy an'analar eneolit davrida ham davom etib, yangi sharoitlarga moslashgan holda rivojlangan. Aholi joylashuvi daryo havzalari va tog' oldi hududlariga yaqin bo'lgan, bu esa xo'jalik faoliyatining barqarorligini ta'minlagan.

Xulosa qilib aytganda, O'rta Osiyo eneolit davrida aholi joylashuvi tabiiy-iqtisodiy sharoitlarga bevosita bog'liq holda shakllangan. Etnik jarayonlar asosan mahalliy jamoalar doirasida kechgan bo'lib, keng ko'lamli migratsiyalar kuzatilmagan. Hududiy chegaralar tabiiy omillar bilan belgilanib, aholi xo'jalik va madaniy vorislikni saqlagan holda taraqqiy etgan. Eneolit davri jamiyatlari keyingi bronza davri madaniyatlari shakllanishi uchun muhim asos bo'lib xizmat qilgan. O'rta Osiyo tabiiy-iqtisodiy hududlarida tarkib topgan madaniy-xo'jalik tiplarda istiqomat qilgan aholi joylashishi neolit davri aholisining an'analarini davom ettirganligini; aholining olib borgan migratsion jarayonini ikki tarixiy davrga ajratilishini; Janubiy Turkmanistonning Kopetdog' oldi, Murg'ob daryosi havzasi atroflari hamda Zarafshon vodiysi shimoli o'zlashtirilish makoniga aylanganligini xulosa qilib aytish mumkin.

Ustyurt, Quyi Amudaryo, Zarafshon vodiysi, Toshkent, Farg'ona va Surxondaryo tabiiy-iqtisodiy hududlari aholi moslashgan hududda tabiiy resurslardan foydalanib, hududiy chegara doirasida etnik munosabatlarni olib borganlar.

Ma'lumki, ikki hudud o'rtasida aholi olib borgan xo'jalik sohalari rivojlanishi neolit davrida, boshlanib, eneolit davrida ham davom etgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бижанов Е.Б. Памятники каменного века владений Шахпахты // Археология Туркменистана. – Ташкент: Fan, 1984. – № 2. – С. 8–21.
2. Виноградов А.В. Неолитические памятники Хорезма // Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. – Москва, 1968. – Вып. 8. – С. 25–42.
3. Kabirov J., Sagdullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1990. –B. 14
4. Виноградов А.В., Итина М.А., Кес А.С., Мамедов Э.Д. Палеогеографическая обусловленность поселения древнего человека в пустынях Средней Азии // Первобытный человек, его материальная культура и природная среда в плейстоцене и голоцене. – Москва: Наука, 1974. – С. 290–291.

5. Виноградов А.В. Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского междуречья // Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. – Москва: Наука, 1981. – Т. XIII. – С. 175–179.
6. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – Москва, ИВ РАН 1962. – С. 42.